

2022  
5(7)



ISSN 2181-2551  
E-ISSN 2181-2561

**IQTISODIYOT VA TURIZM**  
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

**ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ**  
международный научно-  
инновационный журнал

**ECONOMICS AND TOURISM**  
international scientific and  
innovative journal

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



**ISSN 2181-2551**  
**E-ISSN 2181-256X**

**"IQTISODIYOT VA TURIZM"**  
**xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali**

**«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»**  
**международный научно- инновационной журнал**

**"ECONOMICS AND TOURISM"**  
**international scientific and innovative journal**

**№5(7) 2022**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022 yil 30 apreldagi 315/5-son qarori bilan iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.**



Jurnal haqida

*"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali*

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy-innovatsion jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

*«Экономика и туризм» международный научно- инновационной журнал*

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-инновационном журнале «Экономика и туризм» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

*"Economics and Tourism" international scientific and innovative journal*

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific and innovative journal "Economics and Tourism" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

## EDITORIAL BOARD



### *Chairman of the Editorial Board*

**Navruz-Zoda Bakhtiyor Negmatovich**

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

### *Vice-Chairman of the Editorial Board*

**Khamraev Khalim Razikovich**

Bukhara State University Docent Doctor of economical sciences

### *Main editor*

**Khidirova Gavkhar Rustamovna**

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

### *Members of editorial board*

**Khamidov Obidjon Khafizovich**

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

**Akhmedov Tursun Mukhitovich**

Institute of forecasting and macroeconomic researcher (IFMR) Deputy director professor,

Doctor of Economic Sciences (DSc)

**Maydyrova Aigul Bulatovna**

Doctor of Economics, Professor. Head Department of "Economics and Entrepreneurship" of the Faculty of Economics of the Eurasian National University L.N. Gumilyov

**Ivlieva (Shaposhnikova) | Olga Vasilevna**

Doctor of Geography, Professor of the Tourism Department of the Higher School of Business of the Southern Federal University

**Mutaliev Lyailya Maratovna**

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor, Head of the Department "Tourism" of the Eurasian National University L.N. Gumilyov

**Djavlonbek Kadirov**

Place of work: Victoria University of Wellington PhD in Marketing

**Khazhimov Pazliddin Zukurovich**

National university of Uzbekistan Docent Doctor of philosophy (PhD) of Economic sciences

**Navruz-zoda Zebiniso Bakhtiyorovna**

Doctor of philosophy on economic sciences (PhD), Associate Professor Department of Economics of the Bukhara State University

**Oripov Makhmud Ashurovich**

Bukhara State University associate professor Department of "Agribusiness and Agro Logistics"

**Abdullaev Ilyos Sultanovich**

Urgench State University professor Doctor of economic sciences

**Alimova Mashhura Toirxonovna**

Samarkand Institute of Economics and Service Professor of the Department of Management  
DSc in Economics

**Juraev Abror Turovovich**

Bukhara State University Vice-rector for International Cooperation Candidate of economic sciences

**Ibragimov Nutfillo Salimovich**

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

**Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich**

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

**Tadjieva Sayyorakhon Uralovna**

Bukhara State University Head of the Department Candidate of economic sciences

**Responsible editor: Gavhar Xidirova**

**Web-administrator: Erkin Farmonov**



## MUNDARIJA

<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Ҳилола Нематовна Очилова.</b> Таълим хизматларини сифатини оширишда синергетик самара усулларидан фойдаланиш имкониятлари .....	5
<b>Хашимов ПазлидинЗукурович, Жаббаров Зарифбой Рустамович, Рустамова Дилшода Зарифбой кизи.</b> Тадбиркорлик фаолиятини иқтисодий ҳавфсизлигининг моҳияти ва шакллари .....	13
<b>Nutfillo Salimovich Ibragimov.</b> Turistik hudud raqobatbardoshligiga oid nazariy bilimlarning shakllanish bosqichlari .....	21
<b>Нурманов У.А.</b> Курилиш материаллари ишлаб чиқариш корхоналарида тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришда таҳлилнинг муҳимлиги .....	31
<b>Uroqov Mamurali Odil oglu.</b> The concept of labor resources as a socio-economic category and its scientific theoretical development .....	39
<b>Yuldashev Kamol Sharifovich.</b> Mustaqil turizmning mohiyati va uni xalqaro tajriba asosida O'zbekiston Respublikasida rivojlantirish imkoniyatlari.....	47
<b>Хотамов Алишер Хотамжон ўғли.</b> Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноати корхоналарида тайёр маҳсулотлар ҳисоби, ички назорат ва ички аудитини такомиллаштириш .....	60
<b>Maxmudova Nodira O'ktamovna.</b> Ta'lim turizmi xizmatlarining tamoyillari, vazifalari va funksiyalari.....	71
<b>Исмаилов Азизбек Рузимахамматович.</b> Аҳоли бандлигини тартибга солишнинг хориж тажрибаси.....	81
<b>Очилова Ҳилола, Азизова Саодат.</b> Анализ развития пещерного туризма в Узбекистане .....	89
<b>Yakubova Shamshinur, Qosimov Jahongir.</b> Meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirishda kooperatsiya tizimini tashkil etishning iqtisodiy asosi.....	96
<b>Bolbekova Gulnoza Shukrullo kizi.</b> Ensuring The Stability of the Process of Active Employment in Industrial Enterprises.....	104

UDK: 338.442

*Yuldashev Kamol Sharifovich\**

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti,

[kamolyuldashev1987@gmail.com](mailto:kamolyuldashev1987@gmail.com)

## MUSTAQIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI XALQARO TAJRIBA ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada sayohatni mustaqil rejalashtirishni ma'qul ko'radigan sayyohlar segmenti tavsiflangan va o'rganilgan bo'lib, uning rivojlanganlik darajasi va kelajakda turizm sohasida qanday o'zgartirishlarga olib kelishi haqidagi ilmiy farazlar ko'rib chiqilgan. Mustaqil sayyohlarning ehtiyojlari tasniflangan va mustaqil turizmga oid ingliz atamaları toifalangan va izohlangan. Mustaqil turizmning rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi uchun qanday iqtisodiy-ijtimoiy manfaatlarga olib kelishi ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil turizm, mustaqil sayohat, sayohatni rejalashtirish, mustaqil qaror qabul qilish, havaskor turizm, uyushtirilgan turizm, yakka tartibdagi sayohat, onlayn band qilish tizimlari.

**Kirish.** Pandemiya dan keyingi davrda, mamlakatda yangi turizm yo'nalishlarni tashkil etish zarurati zamon taqozo etmoqda. Jahon miqyosida sayohatni mustaqil uyushgan turistlar sonining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2022-yil boshida Booking.com elektron band qilish platformasi sayti bergan ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya dan oldingi davrda 14% sayohatchilar yakka tartibda sayohat qilishgan. Ammo pandemiya dan keyingi davrda 2021-yilning o'rtalariga kelib, ularning soni 23% ni tashkil etgan<sup>1</sup>. 2021-yil dekabr oyida booking.com sahifasidan 346.6 million kishi foydalanishgan bo'lsa, 2022-yil avgust oyiga kelib, ularning soni 677.9 million kishini tashkil etgan<sup>2</sup>. Sayohatchilar o'z sayohatlarini uyushtirilgan turistik mahsulotni tanlashdan ko'ra, mustaqil ravishda tashkil etishni afzal ko'rishmoqda. O'zbekistonda turizm sohasi xilma-xilligini, jozibadorligini, turistik hududlarda xizmatlar sifatini oshirish hamda turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan turistik tashkilotlar xizmatlarini sayohatchi tomonidan mustaqil band va xarid qilish imkoniyatlarni oshirish vaqti keldi. Ushbu yangi segment haqida 18.07.2019-yildagi O'RQ-549-son Turizm to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining qonuni, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 16-aprelda qabul qilingan va Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma'qullangan qonunida mustaqil turizm atamasi haqida 3-modda asosiy tushunchalarda ta'kidlab o'tilgan. Unda, **mustaqil turizm** – turistlar tomonidan turoperatorlar va turagentlar ishtirokisiz mustaqil ravishda tashkil etiladigan sayohatdir deb ta'kidlab o'tilgan<sup>3</sup>. Mustaqil sayohatchi tushunchasining nazariy hamda ilmiy atamaları dastlab ingliz adabiyotlarda shakllangan. Bu atamalar xorij adabiyotida turli xil aks ettirilgan. Italiya da yakka tartibda sayohat qiluvchilarni solo traveler deb atashsa, ingliz zaban davlatlarda esa boshqacha talqinlanadi.

- **FIT** «free independent travel» erkin mustaqil sayohat degan ma'noni anglatadi.

- **DIYT** «do it yourself travel» o'z sayohatingni o'zing tashkil qil, deb boshqacha talqinlanadi<sup>4</sup>.

**Mustaqil turizm** (havaskor, mustaqil, erkin, yovoyi turizm) — bu sayohat tur operatorlar va sayohat agentliklarining xizmatlaridan to'liq yoki qisman voz kechish bilan amalga oshirilgan

<sup>1</sup> Solo Travel Statistics and Data: 2021 -2022. <https://solotravelerworld.com/about/solo-travel-statistics-data/>.

<sup>2</sup> Total visits to travel and tourism website booking.com worldwide 2021-2022Published by [Statista Research Department](https://www.statista.com/statistics/1294912/total-visits-to-booking-website), Oct 5, 2022. <https://www.statista.com/statistics/1294912/total-visits-to-booking-website>.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'R.Q-549-son.

<sup>4</sup> More Solo Travelers Choosing Group Tours" November 24, 2021. <https://www.aarp.org/travel/travel-tips/safety/info-2021/solo-group-tours-gain-popularity.html>.

sayohatdir. Uning tashkil etilishida sayohatchi o'z sayohati yo'nalishini mustaqil ravishda shakllantiradi, shuningdek uning barcha tarkibiy qismlarini (chiptalar, joylashtirish vositalari, oziq-ovqat, ekskursiyalar va boshqalarni) o'zi tanlaydi<sup>1</sup>.

Mustaqil turizm deganda, o'z-o'ziga uyuhstirilgan sayohat tushuniladi. Bunday sayohatchilar aksariyat hollarda mustaqil, ya'ni hech kimga va hech narsaga bog'liq bo'lmagan, butun sayohat yo'nalishini o'ziga mos ravishda tashkil etgan, yakka tartibda sayohatni xush ko'radigan insonlar kiradi. Ushbu insonlar o'zining tabiatiga, turmush tarziga, qiziqishiga hamda o'zining dunyosiga ega bo'lgan shaxslar bo'lib hisoblanadilar.

Hozirda internet sahifalaridan foydalanish kundan-kunga oshib bormoqda. Tadqiqotchilarning hisobiga ko'ra 2021 yilda qariyb 70% yosh avlod deyarli 24 soat internet sahifalaridan foydalanishadi. Ushbu toifadagi insonlar ko'p hollarda internet sahifalari tomonidan taklif etiladigan turli xil xizmatlardan foydalanishadi. Bu esa sanoatning virtual muhitga o'tish tendentsiyasi davom etayotganini ko'rsatadi<sup>2</sup>.

Shu tufayli mamlakatda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish maqsadida, yangi xizmatlarni joriy qilishni zamon talab etmoqda. Buning uchun mamlakatning chekka joylarini, turizm salohiyatiga ega bo'lgan maskanlar infratuzilmasini shakllantirish, bu bilan kelajakda yurtimizda turizmning zaif turlarini yangi bosqichga chiqarishga imkon beradi. Masalan, eko turizm, ekstrimal turizm, agro turizm kabi turizm turlariga talab oshadi. Mustaqil sayohatchilar har bir xizmatlar haqida birma-bir ma'lumot to'playdi va o'z yo'nalishlarini mustaqil shakllantirishadi. Bu bilan yurtimizdagi har bir turistik tashkilot o'z xizmatlarini to'g'ridan-to'g'ri sotish va ximatalari haqida ko'proq ma'lumot berishlari imkoniyatiga ega bo'lishadi. Turistik tashkilotlar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantiradi va xizmatlar ko'rsatish sifatini keskin o'zgarishiga olib keladi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Ushbu mavzuga oid tadqiqotlarni Loker-Murphy, L. Pearce, Juan Luis Nicolau, Kenneth, Bianchi, C. A. N. Hakam, Chow-Hou Wee, Carolyn Yang, James, Alexandra, M.S., Caprioglio O'Reilly, Camille, Dr Hayley Stainton, Rosemary Neave, Christoff, Janeen, [Gareth Hanrahan](#), [Milagros Fernández-Herrero](#), [Rosa M. Hernández-Maestro](#) & [Óscar González-Benito](#), Piero Innocenti, Jamie Harper, Ed. Erin Mack Kin, I.Patterson, Sh.Pegg, R.Mahadevan, Compagni Portis, Julian, K. Wiweka, S. S. Wachyuni, S. Prasintya Simawang, P. Adnyana, Stanciulescu Gabriela Cecilia, Elisabeta Iona Molnar, Magdalena Bunghez, Ana Figueroa, kabi olimlar mustaqil turizm mohiyati, nazariy jihatlari, mamlakatning ijtimoi-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni kabi masalalarga oid tadqiqotlarni amalga oshirganlar va ko'p elementlarini o'rganganlar. Shulardan biri Yangi Zellandiyalik olim [Kenneth F. Hyde](#) o'z tadqiqotida mustaqil sayohatchilar tomonidan sayohatni rejalashtirish darajasini, sayohat rejalari qay darajada amalga oshirilishini va dam olish elementlarini tanlashning vaqtinchalik ketma-ketligini o'rgangan<sup>3</sup>.

Avstraliyalik olimlar Loker-Murphy, L, va P. L. Pearce o'z tadqiqotida arzon sayohatchi shaklining kelib chiqishini muhokama qilgan va ryukzakli sayohatchi atamasining zamonaviy ijtimoiy ta'rifini taklif etishgan, unda byudjetli turar joyni tanlash, turli xil odamlar bilan uchrashish, mustaqil ravishda tashkil etilgan va moslashuvchan sayohat jadvali, qisqa ta'tillardan ko'ra uzoqroq davom etishi kabi xususiyatlarini o'rganib chiqishgan<sup>4</sup>.

Ispaniyalik olimlardan Juan Luis Nicolau, sayohatchilarning turli xilda yangi yo'nalishlarni o'zi mustaqil tanlashi hamda bu turdagi sayohatga qay darajada tayyor ekanligi haqida tadqiqotlar olib borilgan. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot turistik yo'nalishlarni tanlashda "masofa"

<sup>1</sup> Kenneth, [Auckland University of Technology](#). The Nature of Independent Travel August 2013, [Journal of Travel Research](#) 42(1):13-23. (<https://www.researchgate.net/publication/238430861>).

<sup>2</sup> Kenneth, [Auckland University of Technology](#). The Nature of Independent Travel August 2013, [Journal of Travel Research](#) 42(1):13-23 DOI: [10.1177/0047287503253944](https://doi.org/10.1177/0047287503253944), <https://www.researchgate.net/publication/238430861>.

<sup>3</sup> Oboronin Matvey Sergeevich, razvitie samostoyatel'nogo turizma aka aktualnaya tendentsiya sprosa, service plus nauchnyy jurnal, 2022, 16(1), 15—24. (<file:///C:/Users/User/Downloads/razvitie-samostoyatel'nogo-turizma-kak-aktualnaya-tendentsiya-sprosa.pdf>).

<sup>4</sup> Kenneth, [Auckland University of Technology](#). The Nature of Independent Travel August 2013, [Journal of Travel Research](#) 42(1):13-23. (<https://www.researchgate.net/publication/238430861>).

xususiyatalari ta'sirida xilma-xillikka intilishi hamda xulq-atvorining mo'tadil roli tahlil qilingan.

MDH olimlardan O.Sutirina, S.Domracheva, N.Axotina hamda Y. Pavlovalar barqaror mustaqil turizmni rivojlantirishda axborot va kommunikatsion texnologiyalarning roliga oid tadqiqotlarni olib borganlar. Ularning fikricha aynan axborot texnologiyalarning tez sur'atda rivojlanishi mustaqil turizm trendini yangi bosqichga olib chiqishiga turtki bo'ldi deb hisoblashgan<sup>1</sup>.

O'zbekistonlik olimlardan N.Ibragimov "Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" monografiyasida mustaqil uyushgan sayyohlar nigohida O'zbekiston turistik hududi jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlarini ilmiy asoslagan. Unda sayyohlar oqimi shakllanishining 1) initsiativ turoperatorlar, 2) reseptiv turoperatorlar, 3) xizmatlarni band (reservation) va xarid qilish (booking) tizimlari 4) milliy va mahalliy turizm portal hamda 5) mahalliy turagent modellari mavjudligini isbotlagan. Initsiativ va reseptiv turoperatorlar vositachiligida shakllangan sayyohlar oqimi **uyushtirilgan turistlar** sirasiga kiritilsa, band qilish tizimlari, milliy va mahalliy turizm portallari va mahalliy turagentlar orqali shakllanganlar **mustaqil uyushgan turistlardir**, degan fikrni ilgari surgan<sup>2</sup>.


### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida mustaqil turizm yo'nalishini rivojlantirishning xalqaro hamda milliy tajribalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida ilmiy-nazariy, kuzatish va tanlab olish, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy statistik rasmiy manbalardan, BJTT rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

### Tahlil va natijalar

Mustaqil sayohatchilarning barchasi sayohatchi kategoriyasiga kiradi, ammo turistik mahsulotni xarid qilmaydi. Ularning, avia chipta hamda mehmonxona xizmatlari vositachilar tomonidan band qilinmaydi. Hattoki faqatgina avia hamda temir yo'l chiptalarini turoperatorlar orqali bron qilinsa ham bunday sayohatchilar mustaqil sayohatchi hisoblanadi. Mehmonxonalar va boshqa turli xil xizmatlarni internet tarmoqlari orqali o'z turyo'nalishini tuzgan sayohatchilar ham mustaqil sayohatchi atamasi bilan ataladi.

Mustaqil sayohatchilar yosh kategoriyasi bo'yicha o'z segmentatsiyasiga ega. Solo Travel Statistics bergan ma'lumotlariga ko'ra o'rta yoshdagi sayyohlar ko'proq yakka tartibda sayohat qilishga moyil. Yana boshqa bir narsani ta'kidlab o'tish lozimki, bu so'rovnoma faqat ingliz tilida suhbatlashuvchi mamlakatlarda gazeta va jurnallar orqali o'tkazilgan. Pastdagi rasmda ushbu so'rovnoma natijasi aks ettirilgan (1-rasm).



**1-rasm. Mustaqil sayyohlar yoshi jihatdan % da aks ettirilgan<sup>3</sup>**

<sup>1</sup> Loker-Murphy, I., and p. I. pearce (1995). "Young budget travellers: backpackers in Australia." annals of tourism research, 22 (4): 819-843.


<sup>2</sup> O. Sutirina, S. Domracheva, N. Okhotina, and Y. Pavlova, Sustainable independent tourism: the role of the information and communication technologies E3S Web of Conferences 250, 04015 (2021) TRESP 2021.

<sup>3</sup> **Manba:** <https://solotravelerworld.com>, nazariy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Yuqoridagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat mustaqil sayohatchilar yoshlar, ya'ni 24-55 yosh kategoriyasiga mansub va ular 56% ni tashkil etadi. Keyingi yosh kategoriyasiga 55 dan yuqori yoshdagi qariyalar tashkil etsa, qariyb, 17% ni 18-24 yoshgacha bo'lgan o'smirlar tashkil etgan.

Butun dunyo bo'ylab yolg'iz sayohat qilish bo'yicha ham sayyohlar jinsiga qarab statistik ma'lumotlar Solo Travel Trends tomonidan berilgan. Ular quyidagi rasmda aks ettirilgan (2-rasm).



**2-rasm.** Mustaqil sayyohlar jinsiga nis% aks ettirilgan<sup>1</sup>.

Yakka tartibda sayohatni amalga oshirishda jinsiga nisbatan rasmda ko'rsatilgandek ayollar kategoriyasiga mansub. Ayollar erkaklarga nisbatan ko'p yolg'iz sayohat qilishini boshqa internet tadqiqot sahifalari ham tasdiqlashgan. 2016 yilda VBT Bicycling and Walking Vacations bergan ma'lumotiga ko'ra qariyb 68% ayol mijozlar yakka tartibda o'z sayohatlarini amalga oshirgan<sup>2</sup>.

Mustaqil sayohatchilar o'z sayohatlarini tuzishda turli xil vositalardan foydalanishadi. Hozirda infotuzilma rivojlanganligini hisobga olgan holda sayyohlar turistik xizmatlarini band qilish maqsadida eng avvalo internet sahifalariga murojaat qilishadi. Boshqalar esa oila a'zolari hamda yaqin do'stlaridan kerakli ma'lumotlarni olishga harakat qilishadi. Solo Travel Trend yil davomida mustaqil sayohatchilarni statistik ma'lumotlarni taqdim etadigan jurnal aynan shu mavzuga oid so'rovlarni o'tkazishgan. Ular pastdagi rasmda aks ettirilgan. (3-rasm)

Internet sahifadagi qidiruv	95,36%
Broshyuralar	32,36%
Oila va do'stlar	32,15%
Jurnal va gazetalar	28,16%
Televizion hujjatli filmlar	27,40%
Boshqalar	23,95%
Sayohat agentliklari orqali	16,83%
Facebook	13,08%
Pinterest	5,83%
Instagram	5,07%
Twitter	1,08%

**3-rasm.** Mustaqil sayohatchi sayohatini tuzishda murojaat qiladigan infrotuzilmalar ro'yxati<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Manba: <https://solotravelerworld.com>, nazariy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


<sup>2</sup> B.N.Navro'zzoda, N.S.Ibragimov, Turistik hudud raqobatbardoshligining ko'p darajali modellari, Durdona nashriyoti, Buxoro 2018, 113 bet.

<sup>3</sup> Manba: <https://solotravelerworld.com>, nazariy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi rasmda mustaqil sayohatchilarning o'z sayohatlarini tuzishda dastlabki bosqichda boradigan maskanlari haqida qanday yo'llar bilan ma'lumotga ega bo'lishi va qaysi infoturizmlaridan foydalanishi to'g'risida so'rovnoma asosida yoritib berilgan. Unda birinchi navbatda mustaqil sayohatchilar kerakli ma'lumotlarni internet sahifalardan qidirishni boshlaydilar.

Keyingi yillarda internet-resurslarning rivojlanishi tufayli mustaqil turizmga bo'lgan talab o'sib bormoqda va ushbu bozor segmenti yanada rivojlanmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanib borayotganligi tufayli turizm – turistik firmalarga qaramligi va ularga bog'lanib qolishi kamayib bormoqda va mustaqillashmoqda. Oxirgi yillarda butun dunyo raqamli iqtisodiyotga o'tayotgan bir vaqtda turizm sohasida ham turli xil bronlash elektron platformalarining ishlab chiqilishi, sayohatchilarga mustaqil ravishda o'z sayohat dasturlarini tuzishga katta imkoniyatlarini ochib berdi. Bular quyidagidan iborat: **Booking.com, Expedia, TripAdvisor, Uber, Airbnb, Agoda, Hostelworld** kabi platformalar odatiy turistik sayohatning o'rnini noodatiy sayohatga almashtirishga erishdi. Bu platformalar orqali barcha turistik tashkilotlar o'z xizmatlarini ro'yxatdan o'tkazib sayohatchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatib, sotuvni amalga oshirishlari mumkin. Bu platformalar mustaqil sayohatchilar uchun o'z sayohatlarni tashkil etishda katta imkoniyatlarni yaratib beradi. Shu bilan bir qatorda turistik tashkilotlar ham hech qanday vositachisiz xizmat sotuvlarini yanada oshirishga olib kelgan.

Dunyoda mashhur Booking.com platformasidan asosan mustaqil sayohatchilar dunyoning istalgan burchagidan turib, turar joylarni band qilish imkoniyatiga ega. Chunki mustaqil sayohatchi o'z yo'nalishini tashkil etishda mehmonxonani ushbu platformadan qidirishadi. Booking.com bergan statistik ma'lumotlariga ko'ra 2021 yil dekabr oyida 349.6 million inson ushbu web sahifaga tashrif buyurishgan va 2022 yil may oyiga kelib, ularning soni 564.1 millionga yetgan va o'sish 241.5 millionni tashkil etdi.



**4-rasm.** 2021-yil dekabridan 2022-yilning mayigacha butun dunyo bo'ylab booking.com sahifasiga kirganlarning umumiy soni<sup>1</sup>

2022 yil may oyida Booking.com veb sahifasidan turizm maqsadida 564 million inson foydalanishgan. Bunday internet sahifalari haqida yuqorida ta'kidlab o'tilgan kabi har biri turistik xizmatlar haqida yetarlicha axborot beradi.

FIT–mustaqil sayohat uchun moslashuvchan individual yondashuvni tanlaydi. Bu tushuncha

<sup>1</sup> <https://www.statista.com/statistics/1294912/total-visits-to-booking-website/> sahifasiga asoslanib muallif tomonidan ishlab chiqilgan

keng ma'noda ommaviy turizmdan ya'ni paketli dam olishni rad etadigan barcha insonlar uchun ishlatiladi. Psixologik jihatdan mustaqil sayohatchi ommaviy turizmni xush ko'radigan sayohatchilarga nisbatan o'zlarini erkin harakatlanuvchi sifatida ko'rishadi. Bunday turyo'nalishlar forumlar, meetinglar yordamida ishlab chiqiladi, bunda tuzuvchi turyo'nalishning barcha qismi uchun turoperatorlar singari javobgar bo'lishadi. Yakka tartibda sayohat qilgan sayohatchilarning maxsus klublari mavjud. U yerda asosan sayohatchilar sayohat davomidagi barcha tassurotlari va erishilgan tajribalari bilan bo'linishadi.

Sayohatni shakllantirishda xizmat turlarining birlamchi ehtiyojlarini 3 toifa bo'yicha tasniflash mumkin

Mustaqil sayyohlar ehtiyojlarining tasniflanishi

Sayohatgacha bo'lgan ehtiyojlar	Sayohat davomidagi ehtiyojlar	Sayohatdan keyingi ehtiyojlar
<b>Qayerga borishni aniqlash</b>	Transport vositalari	Foydalangan xizmatlarni baholash
<b>Sayohatning davomiyligini aniqlash</b>	Ovqatlanish joylari	Mulohaza qilish
<b>Yakka yoki sherik bilan sayohatga chiqishni aniqlash</b>	Yuvinish xonalari	Tavsiyalar berish
<b>Xarajatlarni o'rganish (aerochipta, mehmonxona, ovqatlanish, transport xizmatlarini oldindan band qilish)</b>	Qisqa muddatda dam olish uchun kichik mehmonxonalar	Erishgan tajribalari bilan bo'lishish
<b>Mablag' yig'ishni boshlash.</b>	Dorixonalar	Mustaqil sayohatchilar klubiga a'zo bo'lish
	Moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish (ayriboshlash, Visa, Master Card)	Sayohatdagi kamchiliklarni yozib qoldirish
	Oziq-ovqat hamda kiyim-kechak sotiladigan shaxobchalar	
	Yoqilg'i quyish hamda elektr mobillarni quvvatlash shaxobchalari	
	Temir yo'l hamda avia chiptalar sotish shaxobchalari	

**5-rasm. Mustaqil sayohatchining birlamchi ehtiyojlari<sup>1</sup>**


Ushbu jadvalda sayohatning shaklanishidagi ehtiyojlar, sayohat davomida muhim bo'lgan ehtiyojlar hamda sayohatdan keyingi ehtiyojlar yoritilgan. Sayohatni to'liq hamda xavfsiz tashkil etishda 3 ta omillarni ham inobatga olgan holda amalga oshirish talab etiladi. Chunki har bir omil sayohat davomida muhimdir. Eng avvalo sayohatga boriladigan hududni va uning davomiyligini oldindan aniqlash lozim, sababi bu ikki asosiy omil sayohatdagi sarf-xarajatlarni aniqlashga yordam beradi. Boriladigan hududning iqtisodiy holatidan kelib chiqib, bo'lajakdagi xarajatlarni aniqlab olish mumkin. Masalan, ushbu manzilga borib kelish avia chiptalari, mehmonxonalar, transport hamda ovqatlanish narxlari kabi omillari kiradi va shu asosda sayohatga sayohatchi tomonidan yetarli mablag' to'planadi. Aynan mustaqil sayohatni amalga oshirishda yakka

<sup>1</sup> **Manba:** [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com), nazariy ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan ishlangan.

sayohatchi ushbu omillarni inobatga olishi lozimdir.

Mustaqil sayohatchilar o'z sayohatlarini tuzishda ko'p hollarda yakka yoki kichik guruhlar bilan amalga oshirishni ma'qul ko'rishadi. Ular ommaviy turizmni xush ko'ruvchi sayohatchilarga qarama-qarshi talqinda yurishadi. Sharqiy Yevropa bozorlari ko'p hollarda ommaviy turizmga moslashgan bo'lsa, G'arbiy Yevropa va Skandinaviya mamlakatlarida mustaqil sayohat turi rivojlanib bormoqda. Bunday sayohatchilar ko'proq noyob tajribalarga ega bo'lishni ma'qul ko'rishadi.

Ingliz tilidagi adabiyotlarda hamda internet sahifalarda tadqiqotni amalga oshirish jarayonida aynan mustaqil turizmga tegishli turli xil ta'riflar mavjudligi aniqlandi. Mustaqil turizmga tegishli xalqaro darajada qo'llaniladigan atamalar 4-rasmda keltirilgan. Xorijiy adabiyotlarda birinchi navbatda sayohatni tashkil qilish uslubiga ko'ra, hamda iqtisodiy xulq-atvor omillariga ko'ra turistlar turli guruhlariga ajratiladi.



**6-rasm.** Mustaqil turizm tavsifida qo'llaniladigan ingliz atamalarining toifalari<sup>1</sup>

<sup>1</sup> **Manba:** ingliz adabiyotlar tavsifiga asoslanib muallif tomonidan ishlangan.

Mustaqil turizm kategoriyasi tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Ushbu atamalarning har biri xalqaro darajada turli xil ma'nolarni anglatadi<sup>1</sup>.

### Sayohat davomidagi molyaviy xarajatlar ahamiyati bo'yicha

- **Backpacking** bu byudjetli sayohat qilishning bir turi bo'lib, bu turdagi sayohatga ko'p hollarda mustaqil hamda yosh kategoriya bo'lgan sayohatchilar amalga oshiradi. Ular odatda arzon turar joylarda qolish, kichik hajmdagi yuk bilan sayohat qilish va barcha kerakli narsalarni ryukzakda olib yurishni ma'qul ko'rishadi. Bunday ko'rinishdagi sayohatning afzallik tomonlari moslashuvchanlikdir, ya'ni sayohatchi sayohat yo'nalishini o'ziga moslab ishlab chiqish imkoniyatiga ega<sup>2</sup>.

- **Flashpacking** atamasi backpacking atamasiga nisbiy tushuncha. Bu tipdagi sayohatchilar backpackerlar kabi yolg'iz sayohat qilishni yaxshi ko'rishadi, ammo mehmonxonalar, transport hamda ovqatlanish uchun ko'proq pul sarflashga tayyor bo'lishadi. Flashpackerlarning moliyaviy holati yaxshiroq bo'ladi. Flashpacker - bu sarflash uchun puli bo'lgan mustaqil sayohatchi. Flashpackerlar ham bitta ryukzak bilan, byudjetni hisobga olgan holda mustaqil sayohat qilishadi, lekin tur davomida yaxshiroq qulayliklarga ko'proq mablag' sarf qilishadi<sup>3</sup>.

- **Poshpacking** ham flashpackerlar kabi yuqori darajadagi xizmatlardan foydalanishni ma'qul ko'rishadi, lekin tur mahsulotning dizayni, holati va uning noyobligiga ko'proq urg'u berishadi. Masalan, mehmonxonaning ko'rinishi, xona hamda yuvinish xonalarining tozaligi, transport vositalarining qulayligi va hattoki ovqatlanish joylaridagi buyumlarining tozaligi, ular uchun juda muhim omil bo'lib hisoblanadi<sup>4</sup>.

- **Budget tourism** ya'ni byudjet sayohatchisi, odatda arzon avia chiptalar, turar joylar, arzon taomlar iste'mol qilishi (masalan, [ko'cha taomlari](#)) hamda arzon turistik joylarni topib sayohat qiladigan kishidir. Byudjet sayohatchilar backpacker sayohatchilardan farqi, ular ryukzaksiz ham, turoperatorlar orqali ma'lum bir muddatga sayohatga chiqishlari ham mumkin.

- **Begpacking** bu qashshoq turizmning bir namunasi va backpacking sayohatining bir turidir. Bu atama tilanchilik evaziga mamlakatlararo sayohat qiluvchilar uchun ishlatiladi. Bu ko'rinishdagi sayohatchilar tilanchilik qilishda 3 ta asosiy usuldan foydalanishadi. **Birinchi**, aholi ko'p bo'lgan joyda o'tirib, qo'lida qog'oz va unda sayohati uchun pul ajratishni yozilgan holda tilanchilik qilishadi, **ikkinchisi**, mahalliy avtobuslarga chiqib, xuddi shu yozuv bilan odamlardan so'rash yoki musiqa asbobiga ega bo'lgan sayohatchilar ko'chalarda musiqa chalib pul ishlashlari mumkin, **uchinchisi**, mahsulot yoki xizmatlarni sotish, masalan, qo'lida ishlangan san'at, zargarlik buyumlari yoki qo'lida ishlangan mahsulotlar sotish evaziga sayohatga mablag' jamlashadi<sup>5</sup>.

### Kasb-hunari bo'yicha:

- **Student travel** o'qish maqsadida talabalar tomonidan mustaqil tashkil etilgan sayohatlar, sayohat byudjeti talabani oilaviy shart-sharoitlaridan kelib chiqadi va qoplanadi. Student travel odatdagi sayohatlardan farqli o'laroq, talabalar boshqa [madaniyatlarni](#) o'rganish, no odatiy hayot tajribasiga ega bo'lish va boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimini o'rganish, va shu jumladan, ish tajribasiga ega bo'lishdan iboratdir<sup>6</sup>.

- **Explorer** – Tadqiqotchi-sayohatchi. Odatda turistlar bormaydigan, insoniyat tomonidan kam

<sup>1</sup> A. N. Hakam, Chow-Hou Wee, Carolyn Yang, Lifestyle Segmentation of the International Tourists In book: Proceedings of the 1988 Academy of Marketing Science (AMS) Annual Conference (pp.142-146)January 2015, DOI:10.1007/978-3-319-17046-6\_28.

<sup>2</sup> James, Alexandra, M.S., December 2014, Using lifestyle segmentation to develop lodging packages for staycation travelers: an exploratory study with college students (105 pp.), Hospitality and Tourism Management.

<sup>3</sup> Caprioglio O'Reilly, Camille (2006). "From Drifter to Gap Year Tourist Mainstreaming Backpacker Travel". Annals of Tourism Research. 33 (4): 998–1017. <https://doi.org/10.1016/j.annals.2006.04.002>.

<sup>4</sup> Dr Hayley Stainton, the principles and practice of travel and tourism management from both an academic and practical perspective, tourism teacher, Last updated on: 13/01/2022. <https://tourismteacher.com/flashpacking/>.

<sup>5</sup> Rosemary Neave, women travel the world website, November 30, 2014, <https://womentravelblog.com/accommodation-for-women/poshpacker/>.

<sup>6</sup> Dr Hayley Stainton, the principles and practice of travel and tourism management from both an academic and practical perspective, tourism teacher, Last updated on: 13/01/2022. <https://tourismteacher.com/begpacking/>.

o'rganilgan hududlarni o'rganadi, ayniqsa geografik yoki ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi kishi.

- **Drifter** - bu daydi-sayohatchi, odatdagi turmush tarzidan voz kechib, ko'pincha bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tadi va mahalliy an'analarni o'zlashtiradi. Drifterlar aniq maqsadga ega bo'lmagan, lekin har doim o'z turar joyini o'zgartirib turadigan mustaqil sayohatchidir<sup>1</sup>.

#### **Tashkilotchilik shakliga ko'ra:**

- **Unorganized tourism** – tashkillashtirilmagan turizm, mustaqil turizmning bir turi bo'lib, drifter sayohatchilarga o'xshashdir, ammo aniq yo'nalishga va maqsadga ega bo'lgan, lekin oldindan hech bir xizmatni band qilmagan sayohat turidir. Bunday sayohatchilarni boshqacha qilib tavakkalchi – sayotachi deb ham atashadi.

- **Self-organized tourism** - o'z-o'ziga tashkillashtirilgan sayohatdir. Bunday sayohatchilar o'z yo'nalishlarini oldindan belgilab, barcha asosiy xizmatlarni (aviachipta, mehmonxona, transport, ovqatlanish hamda tarjimon) ni oldindan band qilishadi<sup>2</sup>.

- **Semi-organized tourism** – yarim tashkil etilgan sayohat, bunda sayohatchi sayohatini o'zi tashkil qiladi, ammo ba'zi bir xizmatlarni turistik firmalar orqali sotib oladi, masalan mehmonxonani oldindan band qiladi<sup>3</sup>.

- **Do-It-Yourself travel** sayohatni rejalashtirish va uni ijro etish faqat sayohatchi tomonidan tashkil etiladi. Sayohat yo'nalishini mustaqil tanlaydi va sayohat davomida o'zi istagan ish bilan shug'ullanish va ko'rishni xohlaydi, turar joy hamda ovqatlanish tanlovi ham uni ichiga kiradi<sup>4</sup>.

- **Self-guided tour** – o'z o'zini boshqaradigan tur bo'lib hisoblanadi, ya'ni sayohatchi bir yo'nalishdan ikkinchi yo'nalishga mustaqil harakatlanadi. Bunda sayohatchi diqqatga sazovor joylarni maxsus audiosayohat yoki audiogidlardan foydalanadi. Bu maxsus qurilmalar sayohat yo'nalishini, vaqtini va ma'lumotini belgilab beradi. Hozirda ko'pgina diqqatga sazovor joylar o'zining shaxsiy ilovasi, xaritasi, yo'nalishi va maxsus qurilmalariga ega. Audio turlar ko'pincha virtual turlar kabi bukletlar, smartfonlar yoki mustaqil qo'l qurilmalari yordamida o'z-o'zidan boshqariladigan tur formatida taqdim etiladi<sup>5</sup>.

#### **Transportdan foydalanishi bo'yicha:**

- **Caravanning** bu karvon turizmining ixtisoslashgan shakli bo'lib, unda transport vositasi, hamda turar joyni ta'minlash uchun ikki tomonlama maqsadga xizmat qiladi. Bunday transport vositalar ham harakatlanmaydigan va avto turargohlarda joylashgan bo'lishi mumkin, ham bir transport vositasiga shatakka bog'langan holda bir joydan ikkinchi joyga harakatlanuvchi bo'lishi mumkin. Hozirda bunday turizm shakli g'ildirak ustidagi turar joylar deb tasniflanadi va sayohatlar asosan kemperlarda amalga oshiriladi<sup>6</sup>.

- **Hitch-hiking travel** bu avtostop - sayohat qilishning eng arzon usullaridan biri. An'anaga ko'ra, avtostop yo'lovchilar yo'l chetida, tirbandlikka qarshi turib, bosh barmog'ini yuqoriga qarab cho'zilgan holda avtotransportni to'xtatishga chaqirish deb ta'riflanadi. Bu yo'lovchi, odatda notanish yo'lovchilardan o'z mashinasida yoki boshqa transport vositasida sayohat qilishni so'rash

<sup>1</sup> Christoff, Janeen (July 31, 2018). "These 6 Youth Travel Trends Are Changing the Industry". TravelPulse.

<sup>2</sup> Gareth Hanrahan. *Core Rulebook* (Mongoose Publishing, 2008), 16.

<sup>3</sup> Milagros Fernández-Herrero, Rosa M. Hernández-Maestro & Óscar González-Benito Pages 658-668 | Published online: 10 May 2019. <https://doi.org/10.1080/10941665.2019.1614082>.

<sup>4</sup> Piero Innocenti, *Tourism Studies: The Emergence of a New Systemic Approach, Example from United States and Europe*, page 65, 2011. <https://books.google.co.uz/books?id=A1A4AwAAQBAJ&pg=PA65&lpg=PA65&dq=semi-organized+tourism&source>.

<sup>5</sup> Jamie Harper, *Do-It-Yourself Vacations | Pros and Cons of DIY Travel*, [MAY 10, 2018](https://flybytheseatofourpants.com/diy-travel/). <https://flybytheseatofourpants.com/diy-travel/>.

<sup>6</sup> Ed. Erin Mack Kin "Самоуправляемый прил." Новый Оксфордский американский словарь, второе издание. , издательство Оксфордского университета , 2005. [https://en.wikipedia.org/wiki/Self-guided\\_tour#cite\\_note-1](https://en.wikipedia.org/wiki/Self-guided_tour#cite_note-1).

orqali olinishi mumkin bo'lgan transport vositasidir<sup>1</sup>.

- **Megaloping** faqat jamoat transportida sayohat qilishdir. Bunda asosan mustaqil sayohatchilar mahalliy transportlardan ya'ni temir yo'l, yo'nalsihdagi avtobus hamda taksilardan foydalanish tushuniladi<sup>2</sup>.

- **New Age tourism** sayohatchilar turli xil harakatlarning a'zolari bo'lib hisoblanadi. Bu harakatning asosiy maqsadi guruh bo'lib, boshqa davlatlarning urf-odatlarini, turmush-tarzi, dini va aholisi haqida o'rganishdir. New age harakati a'zolari bir joydan ikkinchi joyga guruh bo'lib harakatlanib, mashinalarda tunashadi<sup>3</sup>.

#### **Individual turizm kategoriyasiga ko'ra:**

- **Free independent travel (FIT)** bu sayohatchilar deyarli har doim o'z sayohatlarini o'zlari tuzishadi. Ular guruh bo'lib sayohat qilishdan, boshqalar tomonidan tuzilgan sayohat yo'nalishi bilan harakatlanishdan voz kechishadi. Ba'zi hollarda sayyohlik agentlar yordamidan foydalanishadi<sup>4</sup>.

- **Group inclusive tourism (GIT)** Sayyohlik agentligi yordamida 5 kishidan ortiq guruhlarda tashkil etilgan sayohatdir. GIT odatda bitta maqsadga ega bo'lgan va bir manzilga borayotgan sayyohlarda tashkil etilgan sayohat turi hisoblanadi. Bunda barcha xizmatlar turistik operatorlar yoki ba'zida gidlar orqali tashkil etiladi.

- **Open trip** notanish guruhda sayyohlik agentligi tomonidan tashkil etilgan qo'shma sayohatdir. Bunda guruh a'zolari oldindan ma'lum bo'lmaydi. Turmahsulot oldindan e'lon qilinadi va guruh a'zolari birma-bir shakllantiriladi. Bu guruhning soni turlicha bo'lishi mumkin va guruh a'zolari bir-birlari bilan umuman notanish bo'lishlari mumkin.

#### **Xulosa va takliflar**

Mustaqil turizm kategoriyasini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Ushbu atamalar eng ko'p ingliz adabiyotlarida uchraydi. Ularning barchasi mustaqil turizm kategoriyasiga taalluqli. Ushbu kategoriyalarning asosi, mustaqil ravishda sayohatni tashkil etish va amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun bu atamalar ko'pincha iqtisodiyoti hamda turistik oqimi barqaror rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlatiladi. Bu atamalarning aksariyat qismi O'zbekiston uchun yangicha talqin bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil sayohatchilar guruhli sayohatchilar bilan sayohat qilgandan ko'ra o'zlarining sayohatlarini yaratishni afzal ko'radilar.

Mustaqil sayohatchilar yolg'iz, juft bo'lib yoki kam sonli odamlar hamrohligida sayohat qilishadi. Ularning maqsadi o'zlari tanlagan yo'ldan borish, ular ko'rmoqchi bo'lgan narsalarni o'rganish va shu bilan o'zlarining noyob sayohat tajribalariga ega bo'lishdan iborat. O'z sayohatlarini rejalashtirish orqali ular guruhga bog'lanmasdan, o'zi xohlagancha sayohat qilishlari mumkin [30].

Mustaqil sayohatchilar asosan tajribali va yakka-kimlikni xush ko'radigan sayohatchilardir, shuning uchun ular sayohatda hamma narsani oldindan band qilmasdan, ma'lum darajada erkinlikni saqlashga harakat qilishadi. Masalan, bir manzilga borganda, o'sha manzillar ularga yoqib qolsa, sayohat davomiyligini yana cho'zish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Qaysi transport

<sup>1</sup> I.Patterson, Sh.Pegg, R.Mahadevan, The Benefits of Short Stay Caravan Travel Based on the Lived Experiences of Grey Caravanners in Australia, November 2015, *Tourism Analysis* 20(5):539-549, DOI:10.3727/108354215X14411980111497.

<sup>2</sup> Compagni Portis, Julian (2015). *Thumbs Down: America and the Decline of Hitchhiking* (BA thesis). Wesleyan University.

<sup>3</sup> K. Wiweka, S. S. Wachyuni, S. Prasintya Simawang, P. Adnyana, Current Issues of Backpacking Tourism Development: Profile and Characteristics of "Sharecost" and "Opentrip" Tourist, April 2019, *Journal of Education Society and Behavioural Science*, DOI:10.9734/jesbs/2019/v30i230124.

[https://www.researchgate.net/publication/332529646\\_Current\\_Issues\\_of\\_Backpacking\\_Tourism\\_Development\\_Profile\\_and\\_Characteristics\\_of\\_Sharecost\\_and\\_Opentrip\\_Tourist](https://www.researchgate.net/publication/332529646_Current_Issues_of_Backpacking_Tourism_Development_Profile_and_Characteristics_of_Sharecost_and_Opentrip_Tourist).

<sup>4</sup> Stanculescu Gabriela Cecilia, Elisabeta Iona Molnar, Magdalena Bunghez, Tourism's Changing Face: New age tourism versus old tourism, July 2011, Source, RePEc.

[https://www.researchgate.net/publication/227462966\\_tourism's\\_changing\\_face\\_new\\_age\\_tourism\\_versus\\_old\\_tourism](https://www.researchgate.net/publication/227462966_tourism's_changing_face_new_age_tourism_versus_old_tourism).

vositalaridan foydalanish, qaysi restoranlarga tashrif buyurish hamda qanday taomlarni tanlashda ham mustaqil qarorlarni qabul qilishadi. Ularda nimaga tashrif buyurish va qanday sayohat qilish haqida qaror qabul qilish uchun yetarli tajriba bor. Ular boshqa sayyohlarga qaraganda kamroq guruh tajribasiga intilishadi. Farqi shundaki, ular bu yerga katta guruh bilan oddiy tarzda emas, balki maxsus va o'ziga xos yo'llar bilan tashrif buyurishni xohlashadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek mustaqil turizmning turli xil kategoriyalari mavjud. Bundan xulosa qilib aytganda, tadqiqot maqsadida tashrif buyurgan sayohatchi o'ziga kerakli obyektlarni tanlab, uzoq vaqt davomida uni tadqiqot qilishi mumkin. Bu imkoniyatga ega bo'lish uchun sayohatchi erkin turist maqomiga ega bo'lishi lozim.

Hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlar sayohatchilarga sayohat haqida to'liq ma'lumotlari bo'yicha tadqiqotlar uchun yaxshiroq kirish imkonini beradi. Shuningdek, ular fotosuratlar, videolar, hikoyalar va onlayn sharhlardan sayohat haqida ma'lumotlar olishadi. Internet to'liq mustaqil sayohatchilar uchun sayohat ma'lumotlarini olish uchun eng muhim joyga aylandi, ya'ni mustaqil sayohatchilar o'zlariga kerakli bo'lgan xizmatlarni topishi uchun turizm xizmat ko'rsatayotgan tashkilotlar doimo onlayn tarzda aloqada bo'lishlari talab etiladi.

Yuqoridagi atamalardan xulosa qilib, mustaqil sayohatchi asosan arzon sayohatlarni tanlashda ko'proq moyil deb atash mumkin, ammo ba'zi bir mustaqil sayohatchilar, masalan flashpaker va poshpakerlar, yuqori sifatdagi xizmatlarni tanlashadi va tur davomida ko'p mablag'larini sarflashlari mumkin. Sayohatchini yakka tartibda sayohat qilishiga undaydigan turli xil sabablarni sanab o'tishimiz mumkin. Masalan, sayohatda sizga uchraydigan hamroh, sizga nisbatan boshqa dunyoqarashga ega bo'lishi mumkin, garchi moliyaviy tomonidan bir xil holatda bo'lsalar ham. Birinchisi yoqtirgan taomni ikkinchisi yoqtirmasligi mumkin, biri mehmonxonadagi xonalarning dizayni yorug' bo'lishini xohlasa, ikkinchisi qorong'u xonani yoqtiradi, biri to'shak yumshoqligini istasa hamrohi qattiq to'shakni tanlaydi. Bunday sabablarni yuzlab sanab o'tish mumkin. Mustaqil sayohatga undaydigan eng asosiy sabab qilib, sayohatchining xarakteriga, tabiatiga, turmush tarziga va qiziqishiga bog'liq.

Pandemiyadan so'ng yakka tartibda sayohatni amalga oshirivchi sayyohlarning soni tobora ko'payishi xalqaro ekspertlar tomonidan taxmin qilinmoqda. Shu sababdan, O'zbekistonda ham mustaqil sayohatchilarning tashrifini oshirish maqsadida, birinchi navbatda mustaqil sayyohlarni ko'proq jalb qiladigan sayohat turlarini tashkil qilish talab etiladi. Mustaqil sayohatchilarning katta foizini yosh tabaqaga mansub insonlar tashkil etadilar. Ularni ekstrimal, diniy, agro, madaniy, golf, kruiz, karvon parklari, shaxsiy avto transportda mamlakatlararo sayohat kabi turizm turlariga ko'proq qiziqishadi. Yuqorida sanab o'tilgan turizm turlarining deyarli barchasini mamlaktimizda tadbiq etish imkoniyati mavjud. Bu asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

**1.** Ushbu segmentga mos keladigan turar joylar infratuzilmasini yanada takomillashtirish yo'llarini ko'rib chiqish. Guest house, ijaraga beruvchi shaxsiy uylar, yo'l bo'yida mottellarni tashkil etish. Chunki mustaqil sayohatchilar ko'p hollarda arzon turar joyni izlashadi va ularning sayohat davomiyligi doimo o'zgarib turadi.

**2.** Aeroport hamda temir yo'l vokzallarda axborot markazlarni tashkil etish. Sayohatchi kelganidan so'ng o'ziga kerak bo'lgan turar joy, transport, ovqatlanish joylari, obyektlar, tarjimonlar, mahalliy transport qatnovi, ijaraga beriladigan transport vositalari, ijaraga beriladigan arzon turar joylar, tog' hamda cho'l sahrolari haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Aeroport hamda temir yo'l vokzallarda 10 daqiqalik bepul internet tarmoqlaridan foydalanish mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish. Eng asosiysi aeroport hamda temir yo'l xodimlari kamida rus hamda ingliz tilida bema'lol muloqot qila olishi juda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki mustaqil sayohatchilar tarjimon xizmatidan foydalanmasdan, yolg'iz sayohat qiluvchilardir.

**3.** Xavfsizlikni ta'minlash. Birinchi navbatda yolg'iz sayohat qilishni istaydigan inson boradigan joyining xavfsizlik darjasini o'rganib chiqadi. Bu borada O'zbekiston Solo Travel Safety Report 2019-yilda bergan ma'lumotiga ko'ra mamlakatimiz, Singapur, Norvegiya, Irlandiya, Finlandiyadan keyin 5 o'rinni egallagan [31]. Dunyo bo'yicha mustaqil sayohatchilarning 84%ini ayollar tashkil etishidan kelib chiqib, ularning xavfsiz hamda erkin



sayohat qilishini ta'minlab berish lozim.

4. Ekstrimal turizm infratuzilmasini yaxshilash maqsadida cho'l, tog', yaylov va dengiz hududlarida sharoit yaratib berish. Alpinistlar tog' joylarida piyoda yurishni va tog'larning cho'qqisiga chiqish maqsadida bir necha kunlar qolib ketishi mumkin. Ular uchun turar joylar (kempinglar), doimiy aloqa maqsadida elektr tarmoqlari, mahalliy uyali aloqalarning uzlukisiz ishlashi, avtoturargohlar, tog'larda yurish uchun otlar, tuyalar va shunga o'xshash jonli tarnsportlarni tashkil etish, aeroport va temir yo'llardan mahalliy transportlarda to'g'ridan-to'g'ri qatnovlarni yo'lga qo'yish, alpinistlarga zarur bo'ladigan kiyim-kechak va buyumlar savdo rastalarini qurish, tog' xaritalarini ishlab chiqish kabi tog' infratuzilmasini tashkil etish zarur.

5. Yaylovlar va ko'kalamzor joylarda shaxsiy avto transportlarda keladigan mustaqil sayyohlar uchun karvon parklarini tashkil etish. Mustaqil sayohatchilar kemperlarda (yotoqxonaga ega transport vositasi) bir davlatdan ikkinchi davlatga sayohatlarini amalga oshirishadi. Shu sababdan ular mehmonxonalarda tunashmaydi, yotoqxonasi mavjud avto transportlarida tunashadi. Ular uchun bir necha muddat to'xtaydigan karvon parklar zarur va shunga muvofiq infratuzilma ya'ni yoqilg'i quyish shaxobchasi, suv ta'minoti, yuvinish xonalari hamda o'zlari ovqat pishirishga imkoniyatlarni tashkil etish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'R.Q-549-son.
2. Kenneth, [Auckland University of Technology](https://www.researchgate.net/publication/238430861). The Nature of Independent Travel August 2013, [Journal of Travel Research](https://www.researchgate.net/publication/238430861) 42(1):13-23  
DOI:10.1177/0047287503253944.<https://www.researchgate.net/publication/238430861>.
3. Оборин Матвей Сергеевич, развитие самостоятельного туризма как актуальная тенденция спроса, сервис plus научный журнал, 2022, 16(1), 15—24.  
(<file:///C:/Users/User/Downloads/razvitie-samostoyatel'nogo-turizma-kak-aktualnaya-tendentsiya-sprosa.pdf>).
4. Kenneth, [Auckland University of Technology](https://www.researchgate.net/publication/238430861). The Nature of Independent Travel August 2013, [Journal of Travel Research](https://www.researchgate.net/publication/238430861) 42(1):13-23. (<https://www.researchgate.net/publication/238430861>).
5. Loker-Murphy, I., and P. I. Pearce (1995). "Young budget travellers: backpackers in Australia." *Annals of Tourism Research*, 22 (4): 819-843.
6. O. Sutyryna, S. Domracheva, N. Okhotina, and Y. Pavlova, Sustainable independent tourism: the role of the information and communication technologies E3S Web of Conferences 250, 04015 (2021) TRESP 2021.
7. B.N.Navro'zzoda, N.S.Ibragimov, Turistik hudud raqobatbardoshligining ko'p darajali modellari, Durdona nashriyoti, Buxoro 2018, 113 bet.
8. "More Solo Travelers Choosing Group Tours" November 24, 2021.  
<https://www.aarp.org/travel/travel-tips/safety/info-2021/solo-group-tours-gain-popularity.html>.
9. A. N. Hakam, Chow-Hou Wee, Carolyn Yang, Lifestyle Segmentation of the International Tourists In book: Proceedings of the 1988 Academy of Marketing Science (AMS) Annual Conference (pp.142-146)January 2015, DOI:10.1007/978-3-319-17046-6\_28.
10. James, Alexandra, M.S., December 2014, Using lifestyle segmentation to develop lodging packages for staycation travelers: an exploratory study with college students (105 pp.), Hospitality and Tourism Management.
11. Caprioglio O'Reilly, Camille (2006). "From Drifter to Gap Year Tourist Mainstreaming Backpacker Travel". *Annals of Tourism Research*. 33 (4): 998–1017.  
<https://doi.org/10.1016/j.annals.2006.04.002>.
12. Dr Hayley Stainton, the principles and practice of travel and tourism management from both an academic and practical perspective, tourism teacher, Last updated on: 13/01/2022.  
<https://tourismteacher.com/flashpacking/>.
13. Rosemary Neave, women travel the world website, November 30, 2014 ,  
<https://womentravelblog.com/accommodation-for-women/poshpacker/>.

14. Dr Hayley Stainton, the principles and practice of travel and tourism management from both an academic and practical perspective, tourism teacher, Last updated on: 13/01/2022. <https://tourismteacher.com/begpacking/>.
15. Christoff, Janeen (July 31, 2018). "These 6 Youth Travel Trends Are Changing the Industry". TravelPulse.
16. Gareth Hanrahan. *Core Rulebook* (Mongoose Publishing, 2008), 16.
17. Milagros Fernández-Herrero, Rosa M. Hernández-Maestro & Óscar González-Benito Pages 658-668 | Published online: 10 May 2019. <https://doi.org/10.1080/10941665.2019.1614082>.
18. Piero Innocenti, Tourism Studies: The Emergence of a New Systemic Approach, Example from United States and Europe, page 65, 2011. <https://books.google.co.uz/books?id=A1A4AwAAQBAJ&pg=PA65&lpg=PA65&dq=semi-organized+tourism&source>.
19. Jamie Harper, Do-It-Yourself Vacations | Pros and Cons of DIY Travel, [MAY 10, 2018](https://flybytheseatofourpants.com/diy-travel/). <https://flybytheseatofourpants.com/diy-travel/>.
20. Ed. Erin Mack Kin "Самоуправляемый прил." Новый Оксфордский американский словарь, второе издание. , издательство Оксфордского университета , 2005. [https://en.wikipedia.org/wiki/Self-guided\\_tour#cite\\_note-1](https://en.wikipedia.org/wiki/Self-guided_tour#cite_note-1).
21. I.Patterson, Sh.Pegg, R.Mahadevan, The Benefits of Short Stay Caravan Travel Based on the Lived Experiences of Grey Caravanners in Australia, November 2015, Tourism Analysis 20(5):539-549, DOI:10.3727/108354215X14411980111497. [https://www.researchgate.net/publication/283699818\\_The\\_Benefits\\_of\\_Short\\_Stay\\_Caravan\\_Travel\\_Based\\_on\\_the\\_Lived\\_Experiences\\_of\\_Grey\\_Caravanners\\_in\\_Australia](https://www.researchgate.net/publication/283699818_The_Benefits_of_Short_Stay_Caravan_Travel_Based_on_the_Lived_Experiences_of_Grey_Caravanners_in_Australia).
22. Compagni Portis, Julian (2015). Thumbs Down: America and the Decline of Hitchhiking (BA thesis). Wesleyan University.
23. K. Wiweka, S. S. Wachyuni, S. Prasintya Simawang, P. Adnyana, Current Issues of Backpacking Tourism Development: Profile and Characteristics of "Sharecost" and "Opentrip" Tourist, April 2019, Journal of Education Society and Behavioural Science, DOI:10.9734/jesbs/2019/v30i230124. [https://www.researchgate.net/publication/332529646\\_Current\\_Issues\\_of\\_Backpacking\\_Tourism\\_Development\\_Profile\\_and\\_Characteristics\\_of\\_Sharecost\\_and\\_Opentrip\\_Tourist](https://www.researchgate.net/publication/332529646_Current_Issues_of_Backpacking_Tourism_Development_Profile_and_Characteristics_of_Sharecost_and_Opentrip_Tourist).
24. Stanciulescu Gabriela Cecilia, Elisabeta Ilona Molnar, Magdalena Bunghez, Tourism's Changing Face: New age tourism versus old tourism, July 2011, Source, RePEc. [https://www.researchgate.net/publication/227462966\\_TOURISM'S\\_CHANGING\\_FACE\\_NEW\\_AGE\\_TOURISM\\_VERSUS\\_OLD\\_TOURISM](https://www.researchgate.net/publication/227462966_TOURISM'S_CHANGING_FACE_NEW_AGE_TOURISM_VERSUS_OLD_TOURISM).
25. Ana Figueroa, FIT Travel: All About Independence Updated on 06/26/19. <https://www.tripsavvy.com/fit-travel-3252289>.

***Muassislar:***  
***Buxoro davlat universiteti***  
***“Economic science” mas'uliyati cheklangan jamiyati***

<p><b>"IQTISODIYOT VA TURIZM"</b> <b>xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali</b></p> <p><b>2022-yil 5-son (7)</b></p> <p><b>2021-yildan chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 200117</b></p> <p><b>Manzil: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy, 2-bino, 403-xona.</b></p>	<p><b>ilmiy va innovatsion nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor- o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas'ul:</b> <b>Gavhar XIDIROVA</b> <b>Muharrir:</b> <b>Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 26.09.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 03.11.2022</p> <p>Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 580. Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.</p>
---	--	--